

## O`ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLAR TADBIRKORLIGINI QO`LLAB- QUVVATLASHNING O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Muyitdinova Muqaddas

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada falsafaning nazariy kontseptsiyalarida tadbirkorlik omilining ijtimoiy jihatlari tadqiq etilgan. Tadbirkorlikning ijtimoiy kontseptsiyalarini yoritishda eng avvalo, rivojlangan xorijiy ijtimoiy-falsafiy nazariyalarga tayanilgan bo`lib, unda asosan tadbirkorlikning ijtimoiy jihatdan rivojlantirishga o`z hissasini qo`shtan faylasuf olimlarning ijtimoiy-falsafiy nazariyalariga e'tibor qaratib ular qiyosiy tahlil qilingan. Bu esa, falsafaning nazariy-metodologik kontseptsiyalarida tadbirkorlik faoliyatining ijtimoiy jihatlarini yoritilishida muhim ahamiyat kasb etadi.*

**Kalit so`zlar:** *xotin-qizlar tadbirkorligi, rivojlantirish, tadbirkorlar qatlami, halqimizning milliy mentaliteti.*

## PECULIARITIES OF SUPPORTING WOMEN'S ENTREPRENEURSHIP IN UZBEKISTAN

**Abstract:** *In this article, the social aspects of the entrepreneurial factor in the theoretical concepts of philosophy are studied. In elucidating the social concepts of entrepreneurship, developed foreign socio-philosophical theories were relied on, and they were comparatively analyzed, paying attention to the socio-philosophical theories of philosophers who contributed to the social development of entrepreneurship. This is important in explaining the social aspects of entrepreneurship in the theoretical and methodological concepts of philosophy.*

**Key words:** *women's entrepreneurship, development, layer of entrepreneurs, national mentality of our people*

### Kirish

Mustaqillik yillarda O`zbekistonda xotin-qizlarni iqtisodiy jarayonlarga jalb etishga qaratilgan davlat siyosatining ahamiyati, kichik biznes va tadbirkorlik harakatining mamlakat iqtisodiy taraqqiyotidagi o`rni hamda ularda xotin-qizlar ishtiroki masalalariga alohida e`tibor qaratilgan. Bu esa o`z navbatida xotin-qizlarni tadbirkorlik faoliyatiga bosqichma bosqich kirib borishidan dalolat beradi.

Bizga ma'lumki insoniyat jamiyat shakllanishining tarixiy taraqqiyotida bozor iqtisodiyoti muhim ahamiyat kasb etadi. Bozor iqtisodiyotining uzoq yillik tarixiga nazar tashlaydigan bo`lsak, u jamiyat iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlab beruvchi, farovonlikni oshiruvchi progressiv kuch ekanligiga guvohi bo`lishimiz mumkin. Bugungi kunga kelib, jamiyatda moddiy ne'matlar ishlab chiqarish, insonlarning hayotiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi muhim soha sifatida tadbirkorlik bozor iqtisodiyotining ajralmas qismiga aylandi. Bu jarayonda milliy hunarmandchilik muhim

o'r'in tutadi. Hunar turlari asrlar davomida kengayib, yangi yo'nalish va maktablar hosil qilgan.

### Adabiyotlar sharhi

F. Naytning fikricha, har qanday tadbirkorlik faoliyatida «haqiqiy noaniqlik» xususiyati mavjuddir. Bunday noaniqlik hatto kutilgan natijalar va ehtimolliklar to'plamini ham bermaydi. Boshqacha aytganda, bu tushunib bo'lmaydigan noaniqlik, uni to'liq hisoblab bo'lmaydi. Shu sababdan ham, tadbirkorlar tomonidan bu faoliyat turi ko'pincha sug'urta qilinadi. Bu jarayon F.Nayt tadbirkorning daromadi aniq bo'lмаган, xavf-xatar mavjud bo'lgan sharoitda amalga oshiriladigan xatti-harakatlar uchun to'lanadigan ish haqqi hisoblanadi. Bunday holda, foyda tadbirkorning tavakkal qilish va xavf-xatarlarga doimo tayyor bo'lish qobiliyatiga, noaniqlik sharoitlarga barqaror va jiddiy oqibatlarsiz dosh berishga, sezgi qobiliyatiga va ratsional hisoblashga bog'liqdir.

Shunday qilib, F.Nayt tadbirkorlik nazariyasida, avvalambor, ishbilarmonlik muhiti va tadbirkor faoliyatiga xos bo'lgan xavf va noaniqlik tushunchalarini chuqur anglash bilan bog'liq. Uning yondashishi, tadbirkorning shaxsini ijtimoiy-psixologik portretiga uning shaxsiyatiga mos keladigan fazilat va xususiyatlarini kiritish orqali yanada to'liqroq taqdim etish va tavsiflash imkonini beradi.

Amerikalik iqtisodchi R.Kouz ham tadbirkorlik faoliyatining ijtimoiy jihatlarini yoritishga alohida e'tibor qaratgan. U o'zining «Firma tabiat» asarida yangi kompaniyani yaratishning bosh maqsadi bunday xarajatlarni sezilarli darajada kamaytirishdir. Bunday holda, kompaniya tadbirkorning tashqi va ichki muhit bilan munosabatlarini barqarorlashtirish va tartibga solish vositasi sifatida ishlaydi.

### Tahlil va natijalar

O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida amalga oshirilayotgan institutsional o'zgarishlar bilan bevosita bog'liq. Jumladan, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining 69-maqsadida xotin-qizlarning ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish vazifalari belgilangan.

Moliyaviy xizmatlardan foydalanish va tijorat faoliyatini rivojlantirishni qo'llabquvvatlovchi qulay muhitning yaratilayotgani xotin-qizlarning tadbirkorlik va biznes faoliyatnim rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadbirkor ayollar indeksi bo'yicha Yangi Zellandiya (74,4 ball), Kanada (72,4 ball), AQSH (69,9 ball), Shvetsiya (69,6) va Singapur (69,6) kabi mamlakatlar yuqori reytingga ega bo'lganini o'rganish asnosida O'zbekistonda, xususan Qashqadaryo viloyatida xotin-qizlar tadbirkorligini qo'llabquvvatlash va rivojlantirish xususiyatlarini tadqiq etish magistrlik dissertatsiyasi mavzusining dolzarbligini izohlaydi.

### 1-jadval

“Ayollar daftari”ning tadbirkorlik qilish istagida bo’lgan ehtiyojmand xotin-qizlarga ajratilgan kredit mablag’lari

Hudud nomi “Ayollar daftari”ga kiritilgan, kredit ollish istagida bo’lgan xotin-qizlar soni (2-toifa) shundan: AT “Xalqbank” tomonidan berilgan kredit

“Mikrokredit bank” ATB tomonidan berilgan kredit “Agro bank” ATB tomonidan berilgan kredit

Tadbirkorlikka o’qitilgan xotin- qizlar soni

amalda S v a |S\*o

S ’ j j ’3

oL

Yev a | S’\*

J soni summa

(mln.

so’m) soni E v v |S\*o

J soni Yo v s | S’\*

J

	Respublika jami:	49 555	416 355	20 181	4 273	19 106	180
--	------------------	--------	---------	--------	-------	--------	-----

756	8 445 67 883	17 405	167 145				
-----	--------------	--------	---------	--	--	--	--

Qoraqalpog’iston

	Respublikasi	4 911 26 388,9	738 0	1 765 10 588	793	5 062 1	
--	--------------	----------------	-------	--------------	-----	---------	--

627	10 758						
-----	--------	--	--	--	--	--	--

	Andijon viloyati	6 092 34 228,9	5 454 0	2 478 15 136	846	4	
--	------------------	----------------	---------	--------------	-----	---	--

269	2 094 14 824						
-----	--------------	--	--	--	--	--	--

	Buxoro viloyati	2 455 41 184,3	2 334 0	1 135 19 018	316	6	
--	-----------------	----------------	---------	--------------	-----	---	--

508	951 15 658						
-----	------------	--	--	--	--	--	--

	Jizzax viloyati	3 803 19 288,8	356 247	1 234 8 267 691	3 921 1 107 7		
--	-----------------	----------------	---------	-----------------	---------------	--	--

101							
-----	--	--	--	--	--	--	--

	Qashqadaryo	3 577 31 898,6	3 361 3 795 1 303 13 230		836	5 787 1	
--	-------------	----------------	--------------------------	--	-----	---------	--

222	12 881						
-----	--------	--	--	--	--	--	--

	Navoiy viloyati	1 055 11 827,1	0 0	301 3 607 150	2 225 343		
--	-----------------	----------------	-----	---------------	-----------	--	--

5 996

	Namangan viloyati	3 882 21 032,5	2 231 0	1 890 11 367	928	5	
--	-------------------	----------------	---------	--------------	-----	---	--

568	683 4 098						
-----	-----------	--	--	--	--	--	--

	Samarqand						
--	-----------	--	--	--	--	--	--

	viloyati	4 198 39 486,4	91 0	1 560 20 483	677 5 675 1 871 13		
--	----------	----------------	------	--------------	--------------------	--	--

328							
-----	--	--	--	--	--	--	--

	Sirdaryo viloyati	1 989 22 993,6	0 0	903 11 046	339 2		
--	-------------------	----------------	-----	------------	-------	--	--

655	740 9 292						
-----	-----------	--	--	--	--	--	--

	Surxandaryo						
--	-------------	--	--	--	--	--	--

	viloyati	2 017 23 518,2	0 0	631 7 714 430	5 136 723	10 668	
--	----------	----------------	-----	---------------	-----------	--------	--

	Toshkent viloyati	3 997 53 301,6	1 952 0	1 411 19 282	549	5
991	2 035 28 029					
	Farg'ona viloyati	6 877 39 415,0	1 494 0	2 443 16 514	876	5
527	2 543 16 784					
	Xorazm viloyati	4 368 47 298,2	2 066 0	1 915 22 751	919	7
882	1 396 16 665					
	Toshkent shahri	334 4 493,3	104 231 137	1 752 95	1 677 70	
		1 064				

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi 2020 yil 13 oktabrda qabul qilingan qaroriga ko'ra, yoshlар va xotin-qizlarni kasb-hunar va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimining joriy etilishi, O'zbekistonda ayollar uchun qonunchilikka muvofiq bir qator imtiyozlar yaratilayotgani, jumladan, 2022 yilda xotin-qizlarga tadbirkorlikni yo'lga qo'yish uchun 33 million so'mgacha kreditlar ajratilishi, "Yoshlар va xotin-qizlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish dasturlarini samarali amalga oshirish hamda ularning tadbirkorlik faoliyati uchun mikrokreditlar ajratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Hukumat qarori bilan Tadbirkorlik tashabbusiga ega jismoniy shaxslar, jumladan, yoshlар va xotin-qizlarga mikrokreditlar ajratish tartibi to'g'risidagi nizomning tasdiqlanishi mamlakatimizda ushbu sohani rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilayotganligidan dalolat beradi.

Natijada, 2023-yilning 9 oyi davomida 414849 nafar ayollar ishga joylashtirilgan, 44956 nafar ayollarga tadbirkorlik faoliyati uchun 416355 mln. so'm miqdorida imtiyozli kreditlar ajratilgan.

Shuningdek, ta'lim tashkilotlarida tahsil olish istagidagi xotin-qizlar uchun qulay ta'lim muhitini yaratish, ularning ilmiy salohiyati va malakasini tizimli oshirib borishni qo'llab-quvvatlash maqsadida mamlakatimizdagi xotin-qizlarga imtiyozli davr bilan foizsiz kreditlar berilmoqda. Natijada, bakalavriat, magistratura, kunduzgi ta'lim, sirtqi ta'lim hamda kechki ta'limda tahsil olish istagida bo'lган xotin-qizlar soni sezilar darajada o'sib bormoqda.

Xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini chuqur tahlil qilish, innovatsion iqtisodiyot sharoitida daromadlarni oshirish va xotinqizlarning ish bilan bandligini ta'minlash bo'yicha amal qilish qonuniyatları, huquqiy-me'yoriy hujjatlarni o'rganish asosida takomillashtirish vazifalarini hal qilish tadqiqot ishining asosiy masalalaridan biri sanaladi.

Tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi ayollar yurtimizga yangi-yangi xizmat turlari, ishlab chiqarishning innovatsion shakllarini kiritishda jonbozlik qilishmoqda. Xususan, qishloq xo'jaligida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilar xotinqizlardir. Fermerlar – xotin-qizlar, nafaqat qishloq xo'jaligi aholisining, balki shahar aholisini ham oziq-ovqatga bo'lган ehtiyojini qondirmaqda. Chorvachilik, dehqonchilik, baliqchilik hamda qo'ziqorin ishlab chiqarish bilan shug'ullanib, daromadini oshirayotgan xotin-

qizlar tadbirkorlik faoliyatining boshqa turlarini rivojlantirishga o'z hissasini qo'shamoqda.

Shu yo'l bilan xalqaro tajribalarni mahalliy sharoitda qo'llash va mutloq ijtimoiy tenglikga erishish mumkin bo'ladi. Jamiatning demoqratik islohotlarlar yo'lidan nechog'lik ilgarilab ketgani – shu jamiyatning ayollarga munosabati, bu boradagi madaniy-ma'naviy saviyasi bilan belgilanadi. Zero, oqila, go'zal ayollar o'zlarining g'amxo'rliги, mehribonligи, qalbidaryoligi bilan oilalardagi, qolaversa, butun jamiyatdagi muvozanatni, poklik, halollik, samimiyat va adolat muhitini saqlab turadilar. Amalga oshirilayotgan islohotlarning aksariyati xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ularning kasbiy, jismoniy, ma'naviy va intellektual jihatdan o'stirish, ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, davlat qurilishida faol qatnashishlari sohasidagi umummiliy siyosatni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqilmoqda hamda hayotga tatbiq qilinmoqda.

Xotin-qizlarning ijtimoiy muhofazasi nafaqat homiladorlik va bola parvarishi bilan band bo'lgan davrda, shuningdek ularning ishsizlik darajasini qisqartirishga e'tibor qaratilmoqda.

Xotin-qizlarning ishlab chiqarish va tadbirkorlik sohasidagi ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. Qishloq joylarda kichik biznes va hususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yangi ish o'rinalarini yaratishga va aholi, ayniqsa xotin-qizlarning bandligini oshirishga xizmat qiladi.

Birinchidan, bu ijtimoiy-iqtisodiy sohada mehnatga layoqatli xotin-qizlarni band qilishga va bu bilan qishloq joylarda ishsizlik masalasini hal qilishga yordam beradi.

Ikkinchidan, qishloq joylarda aholi daromadini oshishi uchun omillardan biri bo'lib hisoblanadi.

Uchinchidan, hususiy korxonalarini rivoji va oilaviy farovonlik maqsadida qishloq aholisining faolligi kuchayishiga va foydali mehnat bilan band bo'lishga xizmat qiladi.

Xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarini hal etish, ayniqsa qishloq joylarida ularning mehnat va o'qish sharoitlarini yaxshilash, ayollarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etishga qaratilgan dasturlarni tayyorlash va amalga oshirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Uyda ishsiz o'tirgan, bola parvarishi bilan band bo'lgan xotin-qizlarni kasbga o'qitish, ularga daromad olish uchun imkoniyatlar yaratishga qaratilgan xarakatlar manzilli ekanligiga ishonch xosil qilish zarur.

Xotin-qizlar bandligining sifat ko'rsatkichlariga ko'p omillar o'z ta'sirini ko'rsatadi: ish haqi, qo'shimcha to'lovlar, bandlikning doimiyligi, ishga jalb qilish to'g'risidagi shartnomaning davomiyligi va shartlari, ijtimoiy jihatdan himoyalanganlik darjasasi (sog'liq, ishsizlik, nafaqa), vakillik organlari (kasaba uyushmalari), ish vaqt, qaror qabul qilishdagi ishtiroki, xizmatda o'sish imkoniyatlari va malaka oshirish imkoni, ijtimoiy mavqeい va hokazolar. Mazkur ko'rsatkichlar mehnat qonunchiligidagi to'laqonli ta'minlanishiga erishish zarur.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Bekmuradov M. Zamonaviy boshqaruv sotsiologiyasi. Monografiya. – Tashkent: Yangi asr avlod. 2020. B. 43.
2. Позняков В.П. Новая социальная группа: признаки, мотивы действий, трудности становления. // Человек и труд. 1992. № 4–5. – С. 14–17.
3. Безгодов А.В. Очерки социологии предпринимательства. СПб.: Петрополис. 1999. – С. 224. Крюков Д.С. Социологии предпринимательства. Москва: 2011. С. 42.
4. Радаев В.В. Внекономические мотивы предпринимательской деятельности (по материалам эмпирических исследований). // Вопросы экономики. 1994. № 7. - С. 3-14.
5. Заславская Т.И. Бизнес-слой российского общества: сущность, структура, статус. // Социологические исследования. 1995. № 3. – С. 3–11.
6. Заславская Т.И. Бизнес-слой российского общества: сущность, структура, статус. // Социологические исследования. 1995. № 3. – С. 3–11.
7. Крюков Д.С. Социологии предпринимательства. Москва: 2011. С. 26. Найт Ф.Х. Риск, неопределенность и прибыль. – М.: Дело, 2003. – 360 с. Найт, Ф. Этика конкуренции. — М. Анкил, 2008.- 262 с.